

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulkumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Muzaffar Komilov (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)	

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nozliya Normurodova

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Tanju Seyhan (Turkey)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)	

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot
obyekti sifatida6

Dilrabo ELOVA

Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza
qilish metodologiyasi (Soliq kodeksining 248-moddasi misolida)24

Вафа Абдуллаева-Набиева

Развитие синтаксиса азербайджанского языка в рамках
лингвокультурологии40

Kamil Tilyabayev

O'zbek tili: o'rganish, dekolonizatsiya va hissiyot58

Shaxlo Naraliyeva

O'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik
tadqiqi (O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod asarlari misolida)82

ADABIYOTSUNOSLIK

Gulbahor Ashurova

Turkum she'rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik
vosita sifatida.....95

Abdug'ani Nasriddinov

Adabiyotda falsafa va dinning uyg'unligi108

FAN. TA'LIM. METODIKA

Umidjon Kushayev

Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi: institutsional
transformatsiya va strategik model (O'zbekiston misolida)120

Мадина Назарова

Формирование иноязычной риторической компетенции на
материале английского официально-делового дискурса в
неязыковом вузе133

TARIX. MANBASHUNOSLIK

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar va o'g'uz turklari149

Ilhami Cəfərsəy

Avrasiyanın qədim Xivə, Samara və Buxara şəhərləri172

CONTENT

LINGUISTICS

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

The Holy Qur'an as an Object of Theolinguistic Research in
Uzbek Linguistics.....6

Dilrabo Elova

Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts24

Vafa Abdullayeva-Nabiyeva

Development of the Syntax of the Azerbaijani Language Within
the Framework of Linguoculturology40

Kamil Tilyabaev

Uzbek Language: Acquisition, Decolonisation and Emotions58

Shakhlo Naralieva

A Cognitive-Pragmatic Study of Environmental Discourse in Uzbek
Fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad).....82

LITERATURE

Gulbahor Ashurova

Cycle of Poems as a Lyric Device in the Creation of the Image of
Alisher Navo'i95

Abdugani Nasriddinov

The Harmony of Philosophy and Religion in Literature108

SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

Umidjon Kushaev

Integration of Artificial Intelligence into the Education System: Institutional
Transformation and Strategic Model (Uzbekistan as an Example)120

Madina Nazarova

Formation of Foreign-Language Rhetorical Competence Through
English Official-Business Discourse in Non-Language Higher Education...133

HISTORY. SOURCE STUDIES

Shamsiddin S. Kamoliddin

Samanids and Oghuz Turks149

Ilhami Jafarsoy

Ancient Khiva, Samara and Bukhara Cities of Eurasia172

Adabiyotda falsafa va dinning uyg'unligi

Abdug'ani Nasriddinov¹

Abstrakt

Mustaqillikdan keyingi davrda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, diniy erkinlikning ortishi adabiyotshunoslik sohasida ham muhim vazifalarni kun tartibiga chiqardi. Xalqimizga tariximizda o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolar faoliyati, merosini o'rganish, diniy-irfoniy, tasavvufiy mazmundagi adabiyotlarni tushuntirish ehtiyoji yuzaga keldi. Bu borada yurtimizdagi ko'plab olimlar anchayin salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Akademik Shuhrat Srojiddinov ham ko'p yillardan buyon islom falsafasi bilan jiddiy shug'ullanib kelmoqda. Olimning "So'fi Olloyor ilohiyoti" (I qism) nomli monografiyasi, "Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi" darsligi, "O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari" nomli qo'llanmasi birlamchi manbalar asosidagi tahlil va ilmiy xulosalari bilan alohida ilmiy qimmat kasb etadi.

Mazkur maqolada olimning ilmiy faoliyati, diniy-irfoniy adabiyotni xalqimizga yetkazish yo'lidagi tadqiqotlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *"Vahdat ul-vujud" (Yagona borliq), "Vahdat ush-shuhud" ta'limoti, tasavvuf, kalom, komil inson, so'fiylar, kalom ilmi, ortodoksal islom ta'limoti, milliy nigilizm.*

Kirish

Mustaqillik xalqimiz ma'naviy hayotining "chang bosib yotgan sahifalari"ni ochish imkoniyatini berdi. Buyuk muhaddislarimiz, alloma faqihlarimiz, kalom ilmi peshvolarining benazir asarlari xalqimizga taqdim etildi. Xalqimizning ilmiy-ma'naviy tafakkuri yuksaldi, haq va nohaq ta'limotlarni farqlashga o'tdi. Sog'lom e'tiqod shakllana boshladi. Xususan, hozirda Abu Mansur Moturidiy, Imom G'azzoliy, So'fi Olloyor, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'iloniy, Najmiddin Kubro, Abduholiq G'ijdivoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi tasavvuf ilmi darg'alarining faoliyati haqidagi risolalar har bir xonadonning aziz mulkiga aylandi. Tariximizda yashab o'tgan mashhur shaxslar hayoti, ezgu ishlarini xalqimizga tanishtirish yo'lida birmuncha samarali ishlar bajarildi va

¹ *Abdug'ani Nasriddinov* – o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: nasriddinovabdu@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6264-8142

Iqtibos uchun: Nasriddinov, A. 2026. "Adabiyotda falsafa va dinning uyg'unligi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 108 – 119.

bu jarayon davom etmoqda. Allomalar siymosi sahna asarida, badiiy, hujjatli filmlarda, badiiy asarlarda talqin etildi, tarixiy shaxslarning obrazi yaratildi. Adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy talqinlar, tahlillar ham tarixni o'rganish va anglatish yo'lidagi ulkan mehnat sanaladi. Sababi olimning yondashuvi asosida tiklangan haqiqat badiiy asarga ham, sahna asariga ham tanyach manba bo'lib xizmat qiladi. Islom dinining mohiyati, tasavvuf ilmi, Sharq adabiyotining majoziy mazmunga ega mohiyatini anglatishga yordam beradi. Zero, mustaqillik davri kitobxoni uchun ayni mavzularni tushunishga ehtiyoj bor edi, mazkur mavzularning barchasi o'sha ezgu maqsadlar yo'lidagi bajarilgan vazifalardir.

Asosiy qism

O'zbekiston ilm-fanining rivojida filologiya fanlari doktori, akademik Shuhrat Srojiddinovning alohida o'rni bor. Olimning ko'p yillik mehnat faoliyati bevosita ko'plab fan va davlat boshqaruvchi sohalari qamrab oladi. Xususan, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, navoiyshunoslik, tarjima masalalari, dinshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik kabi keng yo'nalishlar olim ilmiy faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Shuningdek, rahbar sifatidagi jamiyatning har bir muammosiga daxldorlik tuyg'usi ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ham o'z natijasini ko'rsatib kelmoqda.

Akademik Shuhrat Srojiddinov ko'p yillardan buyon islom falsafasi bilan jiddiy shug'ullanib keladi. Olimning Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi tomonidan nashr etilgan "So'fi Olloyor ilohiyoti" (I qism) nomli monografiyasi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'quv jarayoni uchun yozgan "Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi", "История религии" darsliklari, "O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari" nomli qo'llanmasi yangi ilmiy xulosalari hamda tahliliy quvvati bilan alohida ajralib turadi. Ushbu monografiya va o'quv qo'llanmalari Shuhrat Sirojiddinovning olim sifatidagi qiyofasini belgilaydi. Uning o'zbek matnshunosligi, navoiyshunosligi va islom falsafasi ilmi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotganini tasdiqlaydi.

Shuhrat Sirojiddinov ko'p yillardan buyon sohaga oid dolzarb muammolarga bag'ishlangan ilmiy loyihalarga rahbarlik qilib kelmoqda. 2008 – 2010-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan berilgan bir necha ilmiy loyihalar, jumladan, "Yoshlarda diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish", "Yoshlarda mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish"

va "Shaxs ma'naviy kamolotini rivojlantirish" kabi ilmiy loyihalarda yoshlarongidavatanparvarlik, fuqarolikpozitsiyasini mustahkamlash va milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhini singdirishning turli uslubiy vositalarini ishlab chiqish jarayoniga boshchilik qilgan.

Olim o'zining "Diniy-falsafiy ta'limotlar va Navoiy duyoqarashi" nomli maqolasida "Vahdat ul-vujud" (Yagona borliq) ta'limoti haqida Naoiy qarashlarini keltirib o'tar ekan, temuriylar davlatining barpo etilishi diniy va dunyoviy ilmlarning adabiyot va san'at rivojiga imkoniyat yaratgani, Amir Temur va uning avlodlari mutaacsiblikdan yiroq shaxslar bo'lib, ilohiyot ilmlariga katta qiziqish bilan qaraganlarini, Naqshbandiylik tariqatining kichik sufiy jamoadan qudratli mafkuraviy oqimga aylanishi, Muhyiddin ibn Arabiy (vaf. 1241) tomonidan ishlab chiqilgan "Vahdat ul-vujud" mistik qarashlar konsepsiyasining Markaziy Osiyoda keng tarqalishi ayni shu temuriylar xonadoning qo'llab-quvatlashi natijasida ro'y berganligini alohida ta'kidlaydi [Сирожиддинов 2011, 826]. Alisher Navoiy aynan shu temuriylar imperiyasining oltin davrida yashadi. U o'zigacha bo'lgan barcha diniy-falsafiy va mistik ta'limotlarni chuqur o'rgangan olim. Navoiy ijod bilan shug'ullanish asnosida davrning yetuk olmlaridan ilm olishga ishtiyoqi balandligi sababli, o'sha davrning ulug'i "Vahdat ul-vujud" ta'limotining zukko bilimdoni bo'lgan Shayx Sadriddin Rivosiy qo'lida saboqlar olgan va "*ko'nglumni base sayd qildi*" deb ustoziga bo'lgan mehr-muhabbatini ifodalagan [Сирожиддинов 2011, 826]. Alisher Navoiy davlat arbobi va shoir sifatida jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini belgilovchi mafkuraviy ta'limotlarga befarq bo'lmagan.

Ko'plab kalom ilmi peshvolari, jumladan, Imom G'azzoliy o'z asarlarida inson amallari haqida so'z yuritadi. G'azzoliy ta'limotida kalom va falsafa yutuqlarini qorishiq kelishi Navoiyga "Vahdat ul-vujud" pozitsiyasidan turib, ortodoksal islom ilgari surgan komil inson g'oyasini tag'ib etishga imkon bergan deyish mumkin. Navoiyning dunyoqarashi amaliy tasavvuf g'oyalariga uyg'un kelishining sababi ham shunda deb mulohaza yuritishimiz mumkin.

Tadqiqotning "Vahdat ul-vujud" (Yagona borliq) ta'limoti to'g'risidagi qismi ham e'tiborga loyiq. Odatda, adabiyotlarda mohiyat tushunchasi to'g'risida ko'p gapiriladi, mohiyat so'zi ko'p qo'llaniladi. Ammo mohiyatning o'zi nima? Kitobda bu haqda shunday ta'rifni o'qib, qanoat hosil qilamiz: "Mohiyat – bizning narsalarga umumiy qarashimizning falsafiy ifodasidir" [Сирожиддинов 2011]. Bunday ixcham xulosalarni bayon etish uchun faqat sharqshunos, adabiyotshunos emas, balki faylasuf ham bo'lish kerak, nazarimizda.

Shuningdek, vahdat ul-vujud hamda tajalli ta'limotlarini anglashda quyidagi xulosalar ham e'tiborga molikdir: *"Inson eng oliy xilqat. U ilohiy ko'rinishlarning barcha shakllarini o'zida sintezlashtirgan. Unda "bor mavjudotning sifati bor"(Fusus, 50-b.), unda olamning bor voqeligi (haqoyiq) mujassamdir (Fusus, 55-b.) Boshqa barchasi Xudo sifatlarining hisobsiz tomonlarining birini aks ettiradi"* (168). Ushbu qarashlarida Sh.Sirojiddinov ilohiyotshunos olim sifatida gavdalanadi.

Tahlil etilayotgan tadqiqotda ham ana shunday o'ziga xos tafakkur tuhfalarini ko'rishimiz mumkin: "Vujud o'zining butun borlig'ida tajalli qiladi, bir shaklda bu yerda, boshqa shaklda u yerda, barcha yerda bilinmay va suyulmay namoyon bo'ladi. Olloh o'z-o'zini tanish jarayonida vujud zaruriy bo'lgan sifatlar va aloqalari bilan namoyon bo'lgan Vujud". Nazarimizda, bu boshqa tadqiqotlarda uchramaydigan va anchayin sodda tushuntirishdir [Шухрат домла 2023, 39].

"Vahdat ul-vujud" falsafasi haqida ham ancha-muncha tadqiqotlar yaratildi, kitoblar, maqolalar chop etildi. Biroq u hamon ilmda yetarlicha tadqiq etilmagan, qiyomiga yetkazib sharhlanmagan, mohiyati ommalashib ketmagan ta'limotdir. Ehtimol, bunga uning o'ta murakkabligi, mavhumligi sababdir. Mustaqillik yillarida mumtoz adabiyotimiz namunalari tahlilining deyarli barchasi "Vahdat ul-vujud" ta'limoti nuqtayi nazaridan sharhlangan. Shuhrat Sirojiddinov o'z kitobida ushbu ta'limot bilan yonma-yon "Vahdat ush-shuhud" ta'limoti ham adabiyotimizga sezilarli ta'sir ko'rsatganini va ulardagi shariat munosabatini tahliliy ochib bergan. Muallif ushbu ta'limotlar to'g'risida "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari" monografiyasida o'zining ilmiy asoslari bilan quyidagi fikrlarni bayon etgan: *"Tasavvuf nazariyasi bir-biriga jiddiy muxolif bo'lgan ikki yo'nalishda rivojlana boshladi. Biri falsafani omuxtalashtirgan holda, ikkinchisi kalomni. Birini "Vahdat ul-vujud", ikkinchisini, "Vahdat ul-shuhud" deb nomladilar. Birinchisi ishq orqali kamolotga erishish va Alloh ma'rifatini kashf orqali anglash, ikkinchisi shariatga rioya qilish, pir-ustozning qat'iy nazorati ostida islom ahkomlaridan og'ishmay, Allohni tanish va bilish yo'lidan borishni targ'ib etdi* [Сирожиiddинов 2011, 10]. Bu ikki ta'limotning bir-biri bilan kesishmaydigan jihatlar borligi, bu ikki oqim namoyandalarining o'z adabiyoti bo'lgani adabiy manbalar tadqiqida olimlar tomonidan hisobga olinishi lozimligi ko'rsatilgan. Muallifning yondashuvi, xulosalari va talqinlari o'rinni.

Sh.Sirojiddinov ijodida 2011-yilda chop etilgan "So'fi

Olloyor ilohiyoti” I qism nomli mongrafiyasi alohida o’rin turadi. Aytish mumkinki, ushbu monografiya So’fi Olloyor bo’yicha dastlabki o’n yil ichida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning yakunlovchisi bo’ldi va kelgusida qilinajak ishlar uchun pillapoya vazifasini o’tadi. Monografiyada XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrda hukm surgan ma’naviy muhit va ulug’ bobokalonimizning ma’naviyatimiz yuksalishiga qo’shgan salmoqli hissasi haqida so’z yuritiladi. Muallif So’fi Olloyorni o’z davrining yirik ilohiyotchi va faqih, mutakallim olimi, Imom A’zam Abu Hanifa ta’limotini rivojlantirgan, “Savodi A’zam” an’analari yangi hayot baxsh etgan buyuk din arbobi bo’libgina qolmasdan, o’zbek va tojik tillarida mumtoz adabiyotning g’azal, tuyuq, soqiynoma, masnaviy kabi lirik janrlarda ijod etganligini alohida ta’kidlaydi. Olim o’zining ushbu mongrafiyasida So’fi Olloyordan islom dini asoslariga, aqida va furu’-fiqhiy masalalariga, tasavvuf ilmi sharhiga bag’ishlangan “Maslak-ul-muttaqin”, “Sabot ul-ojizin”, “Maxzan ul-mute’in”, “Murod ul-Orifin” kabi turkiy va forsiy tilda bitilgan asarlar meros bo’lib qolganligini alohida ta’kidlaydi. Olim fikricha, “Murod ul-orifin” forsiy tilda nasr yo’li bilan yozilgan bo’lsa-da, unda she’riy bayon hollari ham uchraydi. “Maslak ul-muttaqin” So’fi Olloyorning eng yirik asari bo’lib, asar mullifi qayd etganidek, uni hijriy 1111-yil qurbon oining juma kuni yozib tugatgan. Asar forsiy nazmda bitilgan, hajmi 12000 baytdan ortiqroqdur. Bu haqda “Sabot ul-ojizin”da ma’lumot berilgan [Сирожиддинов 2001, 4 – 15]. Ushbu monografiyada “Sabot ul-ojizin” asarining ilmiy-adabiy ahamiyati xususidagi eng muhim ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Sh.Sirojiddinovdan oldin ham, keyin ham mazkur masalada bir qancha o’rganishlar olib borilgan.

Hozirda So’fi Olloyor ijodini ilmiy jihatdan o’rganish ishlari jadallashgan. Respublikamizda Sh.Sirojiddinov, I.Suvonqulov, R.Zohidov; Rossiya Federatsiyasida G.Ilyasova, N.Sobirov kabi olim va tadqiqotchilar So’fi Olloyor hayoti va ijodi haqida maxsus tadqiqotlar olib bordilar. Bir necha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Filologiya fanlari doktori R.Zohidov “Sabotul ojizin”ning ilmiy-tanqidiy matnini yozdi. Shuningdek, bir necha monografik tadqiqotlar yuzaga keldi: N.Allayorovanning “So’fi Olloyor va she’riy mahorat” risolasi (1991), R.Zohidning “Sabot ul-ojizin” asari (1991), M.Xanjarning “Vaxshivor va So’fi Olloyor” (1993), S.Turkistoniyning “G’oyiblar xaylidan yongan chiroqlar” asari (1994), N.Niyozovanning “So’fi Olloyor hayoti va ijodi” risolasi (1995), I.Suvonqulovning “So’fi Allohyor” (1995) risolasi, R.Zohidning “Adabiyot ko’zgusi” risolasi (1996), Sh.Sirojiddinovning “So’fi Olloyor

ilohiyoti" risolasi (2001), N.Baratovning "So'fi Olloyorning badiiy-ma'naviy qarashlari" risolasi (2002), R.Mirzaevning "So'fi Olloyorga zamon boqajak" nomli risolasi (2007, 2012), Sayfiddin Sayfulloh va Akram Dehqonlar "Maslakul muttaqin"ning XIX asrning ikkinchi yarmida Qozixo'ja ibn Hafizxo'ja tomonidan o'zbek tiliga qilingan nasriy tarjimai (2008, 2016), Ozodbek Alimov tomonidan Shayx Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon (Al-Farg'oniy Al-Qobuliy) ning "Hidoyat ut-tolibiy" – "Sabot ul-ojiziyn" sharhi kitobi (2009), Ya.Hudayqulovning "Yoqut ko'zli uzuk" nomli tarixiy qissasi (2010, R.Zohidning "Sabot ul-ojizin" – ilmiy-adabiy manba" (2011) risolasi, S.Sayfulloh va Akram Dehqonlar tomonidan nashrga tayyorlangan "Maslakul muttaqin" risolasi (2012) shular jumlasidandir. Akademik Sh.Sirojiddinov o'z tadqiqotida So'fi Olloyorni boy ma'naviy meros qoldirgan mutafakkirlardan biri ekanligini e'tirof etgan holda, undagi barcha tavsilotlarni sinchiklab o'rganib, birmabir tahlilga tortadi.

So'fi Olloyor nomi bilan mashhur Olloyor ibn Olloquli XVI asrning I yarmi XVII asrning II yarmida yashab o'tgan buyuk ilohiyot olimi, shoir va mutafakkirdir. Manbalarda uning nomi "Abu Hanifai Soniy" ("Ikkinchi Abu Hanifa") sifatida ulug'lanadi.

So'fi Olloyor nomi asrlar davomida Markaziy Osiyo, Volgabo'yi tatar, Kavkaz turkiy xalqlari, Eron Ozarboyjoni va Turkiyada juda mashhur bo'lgan. Bugungi kunda ham So'fi Olloyor ijodi va faoliyati bo'yicha Tatariston, Eron, Turkiyada tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonda So'fi Olloyorning hayoti va faoliyatini o'rganish mustaqillik yillarida boshlandi. Mustabid sovet tuzumi davrida uning ijodini o'rganish, kitoblarini saqlash qat'iyan man etilgan edi. Chunki uning asarlarida ilohiyot masalalari, islom aqidalari, musulmonchilik qoidalari, diniy oqimlarga munosabat masalalari yoritilgan edi.

Markaziy Osiyoda u Xoja Muhammad Naqshband, Xoja Ubaydulloh Ahror va Maxdumi A'zam Kosoniydan keyingi eng mashhur sufiylardan hisoblanadi. Sovet davrida uning nomini tilga olish man qilingan bo'lsa ham, qariyb 100 yil davomida hozirgi O'zbekiston hududidagi xalqlar uning kitoblarini yashirib saqlab kelishdi. She'rlarini yod olishib, avloddan avlodga o'tkazib kelishdi.

O'zbekiston hududidan yuzlab dunyoga mashhur sufiylar yetishib chiqqan. Biroq bular orasida faqatgina So'fi Olloyor asarlari uning vafotidan keyin ham to kommunistik tuzum o'rnatilguncha 200 yil davomida madrasalarda asosiy manba sifatida o'qitib kelingan.

So'fi Olloyor o'z asarlarida muqaddas "Qur'oni karim"

oyatlari, hadisi sharif hikmatlari va tasavvuf g'oyalarini mohirlik bilan uyg'unlashtirgan tarzda taqdim etgan. Faylasuf shoir pand-nasihatdan iborat she'rilarida yo'ldan adashganlarni hidoyatga chorlaydi, adolatni, halollik va to'g'rilikni ulug'laydi, badnafslilik va xudbinlikni qattiq qoralaydi.

U o'zidan 4 asar qoldirdi:

1. Sabot ul-ojizin. O'zbek tilida. Islom dini asoslari, aqidalari haqida.

2. Maslak ul-muttaqin. Fors tilida. Islom farzlari haqida

3. Murod ul-orifin. Fors tilida . Ilohiyot va kalom ilmi haqida

4. Maxzan ul-mute'in. Arab tilida . islom aqidlari va kalom ilmi.

"Sabotul ojizin"ga bo'lgan qiziqish tufayli unga ko'plab sharhlar yozilgan. Ulardan eng mashhuri Tojiddin Yolchig'ul o'g'li tomonidan "Risolayi Aziza" nomli sharhdir. Mazkur asar 1797 va 1850-yillarda Qozonda, 1847-yil Sankt Peterburgda nashr etilgan. M.V.Gaynetdinova va X.Y.Misnegulov tomonidan tayyorlangan matn 1998 va 2001-yillarda Qozon shahrida qayta nashr etilgan. O'zbekistonda esa asar 2000-yilda o'zbek tilida chop etilgan.

"Sabotul ojizin" asariga Salohiddin ibn Rovil Salimiy Qazoniy tomonidan yozilgan "Irshodul voiziyn" ("Voizlarga qo'llanma") hamda Ubaydulloh ibn Islomqul tomonidan ta'lim etilgan "Sabotul ojizin sharhi" nomli sharhlari ham mavjud. Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon qalamiga mansub bo'lgan "Hidoyatut tolibiyn" ("Talabalarni to'g'ri yo'lga boshlash") asari ham "Sabotul ojizin" sharhlaridan biri bo'lib, Lohur shahrida 1928-yilda chop etilgan.

Axloqiy-ta'limiy ahamiyati jihatidan "Maslakul muttaqin" asari ham maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o'qitilib kelingan. Uning diniy-tasavvufiy ruhdagi pand-u hikmatga yo'g'rilgan asarlari nafaqat Turkiston, balki Qashqardan tortib Etel (Volga), Yoyiq (Ural) daryolari vohalari, Hojitarxon (Astraxan), Bulg'or, Orenburg va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar orasida ham keng tarqalgan. XIX asrning oxirlariga kelib Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron, Iroq mamlakatlarida hamda Toshkent, Qozon, Boku, Istanbul va boshqa shaharlarda toshbosma usulida chop etilgan. So'fi Olloyor asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan, ularga bag'ishlab sharhlar yozilgan, lug'atlar tuzilib, qo'llagan tasavvufiy atamalar keng sharhlangan.

Allomaning asarlarida dunyo hayotining ma'no-mazmuni, insonlarning jamiyat oldidagi vazifalari, yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi, tarbiyaning jamiyatdagi o'rni, ustoz-shogird odoblari, farzand

tarbiyasi, yomon xulqning zarari va kamtarlik qilish foydalari, sabr qanoat manfaati, halol kasb qilish mas'uliyati, ilm fazilati, toat ibodat lazzati, anbiyou avliyolar tarixi, sahobalarning jonfidoligi va boshqa dunyo va oxirat ishlarini isloh qiladigan amallar aks topgan.

Sh.Sirojiddinov tadqiqotida So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asari asosida uning aqidasi, o'sha davrda xalq orasida keng yoyilgan turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi olib borgan kurashini, o'zining ibratli hayoti bilan minglab xalqni tarbiyalagani, Muhammad Rasulullohning sunnatini tiklashda peshqadam bo'lganini, "Qur'oni karim" oyatlari va hadisi shariflarga muvofiq komil inson qanday bo'lishi lozimligi haqidagi So'fi Olloyor o'g'itlari mazmunini juda ishonarli tahlil qilib berilgan.

Muallif "Sabotul-ojizin" asaridagi axloq va nafs tarbiyasi – muolajasi xususidagi o'rinlarga to'xtalar ekan, undagi har bir fikr, har bir bayt asosida "Qur'oni karim" oyatlari va Rasululloh alayhissalomning hadislarini yotishini aytib o'tadi. Shuningdek, ushbu faslida So'fi Olloyorning xalqni ilm olishga, ma'rifatli bo'lishga chaqirgan baytlari chuqur sharhlanadi. Olimning din ilmini o'rik mevasiga o'xshatib, uning mevasi ham, danagining ichidagi mag'zi ham mazalidir, degan mazmundagi:

*Erur din ilmi chun zardolu, ey do'st,
Mulazzazdur ani ham mag'zi ham po'st –*

bayti tahlil qilinadi.

So'fi Olloyorning xalq orasida "Ikkinchi Imom A'zam – Abu Hanifayi soniy" laqabi bilan mashhur din islohotchisi bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar aynan Shuhrat Sirojiddinov tadqiqotida aks etgan.

Akademik Sh.Sirojiddinovning 2004-yilda rus tilida "Религии мира" darsligi chop etildi. O'sha davrlarda olim Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti falsafa va jahon madaniyati kafedrasini boshqarar, oliygohlarda ta'lim tili ruscha bo'lgan guruhlarda Dinshunoslik fani mustaqillik mafkurasiga mos kelmaydigan, sovet davridan qolgan, zamon talablariga javob bermaydigan darsliklar asosida o'qitilar edi. Muallif darsligi esa mazkur davrda mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida yaratilgandi. Darslikda dinlarga taalluqli qarashlar har bir dinning o'z ilohiy kitoblaridan, jumladan, Veda adabiyotlarining Hindistonda ingliz tilida nashr etilgan nusxalari, Tavrotning inglizcha Isroil nusxasi, Injilning London nusxalaridan iqtiboslar keltirilib sharhlandi. "O'zbekistonda din siyosati" degan alohida bo'lim kiritildi.

2008-yilda muallif tomonidan "Islom falsafasiga kirish:

kalom ilmi" nomli o'quv qo'llanmasi yaratilib, manba Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Falsafa fani dasturiga asosiy adabiyot sifatida kiritildi. Unda islom falsafasi shakllanishiga zamin yaratgan ilohiyotshunoslikning taraqqiyot jarayoni, dastlabki falsafiy mushohadalarning paydo bo'lishi, kalom, falsafa hamda tasavvuf ta'limotining tarixi va nazariy masalalari ochib berildi. Kalom falsafasi mohiyatini tushunish Sharq falsafasini o'rganish, ayniqsa, o'zbek mutafakkirlarining falsafiy-diniy qarashlarini anglashda ochqich bo'lib xizmat qilishi, islomdagi turli yo'nalish va oqimlarning paydo bo'lish sabablarini xolis o'rganishga katta yordam berishi yorqin misollarda ko'rsatib berildi. Bu O'zbekistonda ilk bor kalom ilmi haqida yozilgan o'quv qo'llanma edi. Ungacha mahalliy va xorijiy sharqshunos olimlarning Abu Mansur Moturidiy yubileyi munosabati bilan e'lon qilingan sanoqli ishlaridagi kalom ilmi bayonini hisobga olmaganda, bu ilm haqida faylasuflarimizning umuman tasavvuri yo'q bo'lib, faylasuflar tomonidan hech qanday tadqiqot olib borilmagan edi. Ushbu qo'llanma tufayli faylasuflar islom ilohiyoti ilmi tafsilotlaridan xabardor bo'ldilar.

2010-yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasi bilan Shuhrat Sirojiddinovning "Bag'rikenglik – dinlarning ma'rifiy asosi" nomli o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Unda O'zbekiston xalqlarining ko'pmingyillik ma'naviy taraqqiyoti bosqichlarida o'zaro muloqotda bo'lgan diniy e'tiqodlar tarixi va ta'limotlari haqida ma'lumotlar berildi. Asosiy e'tibor dinlarning ma'rifiy asoslari, diniy ta'limotlarning shakllanishiga sabab bo'lgan davr va muhit, axloqiy o'gitlarga qaratilgani bilan alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

2011-yilda esa olimning birin-ketin diniy-falsafiy mazmundagi ikki kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitoblar Shuhrat Sirojiddinovning ko'p yillar davomida yozgan maqolalari natijasida dunyoga kelgan desak to'g'ri bo'ladi. Shulardan biri "Ilm va taxayyul sarhadlari" deb nomlangan. Kitobda xalqimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida va tafakkurining shakllanishida ijobiy iz qoldirgan mutafakkirlar haqida fikr yuritilgan.

Unda keltirilgan Abu Mansur Moturidiy, Imom G'azzoliy, So'fi Olloyor, Shihobiddin Suhravardiy, Mavlono Chustiy, Shayx Ahmad Sirhindiy kabi ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan mutafakkirlar haqida keng ma'lumot berilgan. Ayniqsa, tasavvuf yo'nalishiga tamal toshini qo'ygan ilk so'fiylar va ularning tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni tahlili falsafa tarixini yozayotganlar uchun ham yangilik edi. Bular kitoblarning barchasi shunchaki qaysidir kitoblardan ko'chirib olingan ma'lumotlar emas, balki olim tomonidan O'zFASHI

qo'lyozmalar fondidagi qadim qo'lyozmalar va chet ellarda e'lon qilingan tadqiqotlarni teran o'rganishi orqali taqdim etilgan yangi ma'lumotlar edi.

Olimning keyingi kitobi "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari" deb nomlangan. "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini tahlil qilar ekanmiz, badiiyatning murakkab qobiqlariga o'ralgan falsafiy g'oyalar, borliq muammosining o'ziga xos yechimlari, Olim va Odam munosabatlari mavzusi o'zbek xalqining tafakkur ko'lamlari butun Sharq falsafasidan oziqlanganini his etamiz" [Сирожиддинов 2011], deyiladi asarda.

E'tiborlisi shundaki, asarda so'z mutafakkirlari shaxsidan ko'ra ko'proq ularning ta'limotlari ustida fikr yuritilgan. Kitobning bunday nomlanishi sababi uning maqsadi o'zbek mumtoz adabiyotini tahlil qilish metodika va metodologiyasini o'zgartirishga qaratilgani bilan izohlanadi. Ma'lumki, mumtoz adabiyot falsafa, islom dini va ilohiyot masalalari bilan chambarchas bog'liq.

Ma'lumki, mumtoz adabiyot falsafa, islom dini va ilohiyot masalalari bilan chambarchas bog'liq. Milliy adabiyotimizning falsafiy sarchashmalarini faqatgina chetdan kirib kelgan islom manbalari tashkil etgan, degan qarash esa o'zagida milliy nigilizm yashiringan biryoqlama munosabatdir. O'ziga xos milliy dunyoqarash asosida rivojlanmaganida, islomgacha mamlakatimizning qadimiy sarhadlarida bunday ulug' xalq, qudratli davlat, umumbashariy madaniyat shakllanmagan bo'lar edi. Hatto, *"Movarounnahrda islom yagona va mutlaq hukmron mafkuraga aylangan bir davrda ham aholi o'rtasida islomgacha bo'lgan mistik qarashlar kuchli bo'lgan. Shubhasiz, islomda falsafa atalmish fan sohasining shakllanishida nafaqat yunon faylasuflarining asarlari ta'siri bo'lganligi, balki mahalliy-mistik-ilohiyot g'oyalarining muayyan o'rni borligi haqida ham gapirish mumkin"* [Сирожиддинов 2011, 3]. Shuhrat Sirojiddinov kitobida o'zbek adabiyotida o'z izini qoldirgan diniy-falsafiy ta'limotlar, adabiy manbalarni tahlil qilishda mualliflarning diniy-mazhabiy, qaysi falsafiy yo'nalishlarga mansubligini aniqlashga asos bo'ladigan g'oyalar tahlil qilingan edi. Uning veda, xristian va tasavvuf ta'limotlari o'rtasidagi mushtarak g'oyalarning kelib chiqish tarixi haqidagi tahlillari falsafa fani uchun ham juda asqotdi.

Xulosa

Olim adabiyotning falsafa bilan chambarchas bog'liqligini, mumtoz adabiyot taraqqiyotida madaniyatning, millat tafakkurining, ayni paytda, millat badiiy didi va tafakkurining yuksalishida

adabiyotning o'rni katta ekanini qadimiy manbalar asosida tadqiq etdi. Mazkur tadqiqotlar keng miqyosdagi adabiyot ixlosmandlariga mumtoz adabiyotga kirish uchun o'ziga xos qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Zero, falsafiy sarchashmalarini o'zlashtirmasdan turib, adabiyotni o'rganib bo'lmaydi, o'rganilganda ham, chala o'rganiladi.

Olimning diniy manbalar zamiridagi falsafiy mazmunni ochishga qaratilgan tadqiqotlari adabiyot, din va falsafa fanlari uyg'unligida yoritilgan muhim ilmiy ishlardir. Mazkur ilmiy ishlar dinning mohiyatini anglash, badiiy adabiyotni g'oyaviy, diniy manbalari bilan birga tahlil qilishda metodologik asos vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar

- Сирожиддинов, Ш. 2011. «Алишер Навоий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти». Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. Тошкент: Ўзбекистон.
- Сирожиддинов, Ш. 2023. *Амир Алишер. Ҳаёти ва фаолияти*. Тошкент: Адабиёт.
- Шуҳрат домла*. 2023. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Б. Холиқов, И. Исмоилов, О. Тожибоева, С. Умаров, А. Насриддинов. Тошкент: Akademnashr.
- Сирожиддинов, Ш. 2011. *Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Сирожиддинов, Ш. 2001. *Сўфи Оллоёр илоҳиёти*. I қисм. Тошкент: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси.

The Harmony of Philosophy and Religion in Literature

Abdug'ani Nasriddinov¹

Abstract

In the post-independence period, the revival of national values and the expansion of religious freedom have brought new and significant tasks to the forefront of literary scholarship. There emerged a growing need to study the lives and intellectual legacies of eminent figures who left an

¹ *Abdugani Nasriddinov* – Lecturer, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

E-mail: nasriddinovabdu@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6264-8142

For citation: Nasriddinov, A. 2026. "The Harmony of Philosophy and Religion in Literature". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 108 – 119.

indelible mark on the history of the Uzbek people, as well as to investigate and interpret religious, mystical, and Sufi-oriented literary works. In this regard, numerous substantial scholarly contributions have been made by Uzbek researchers. Among them, Academician Shuhrat Sirojiddinov has been engaged in the systematic study of Islamic philosophy for many years. His monograph *The Theology of So'fi Olloyor* (Part I), the textbook *Introduction to Islamic Philosophy: The Science of Kalām*, and the instructional manual *The Philosophical Sources of Uzbek Literature* are distinguished by their rigorous analyses based on primary sources and their well-founded scholarly conclusions.

This article examines the academic contributions of Shuhrat Sirojiddinov and analyzes his research devoted to the study, interpretation, and dissemination of religious-mystical and Sufi literature among the wider public. Particular attention is given to his role in exploring the philosophical and theological foundations of Islamic intellectual heritage and its significance within the development of Uzbek literary and cultural thought.

Key words: *Wahdat al-Wujūd (unity of existence), Wahdat al-Shuhūd (Unity of Witnessing), Sufism, Kalām, the Perfect Human (al-Insān al-Kāmil), Sufis, the science of Kalām, orthodox Islamic doctrine, national nihilism.*

References

- Sirojiddinov, Sh. 2011. «Alisher Navoiy va ma'naviy merosining olamshumul ahamiyati». Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Toshkent: O'zbekiston.
- Sirojiddinov, Sh. 2023. *Amir Alisher. Hayoti va faoliyati*. Toshkent: Adabiyot.
- Shuhrat domla. 2023. To'plab nashrga tayyorlovchilar B. Xoliqov, I. Ismoilov, O. Tojiboeva, S. Umarov, A. Nasriddinov. Toshkent: Akademnashr.
- Sirojiddinov, Sh. 2011. *O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
- Sirojiddinov, Sh. 2001. *So'fi Olloyor ilohiyoti*. I qism. Toshkent: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi.